

STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISH

Muminov Abror Istamkulovich

O'zbekiston Respublikasi

Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annatoatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda strategik boshqaruv hisobini tashkil etish va uning uslubiy asoslarini takomillashtirish masalalari keng yoritib berilgan. Ma'lumki, boshqaruv hisobining konsepsiyasini shakllantirish muhim masalalardan hisoblanadi. O'z navbatida uning tarkibiy qismi bo'lgan strategik boshqaruv hisobi korxonalarining qisqa, o'rta va uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolada strategik boshqaruv hisobini tashkil etish, uning tamoyillari, uslubiyoti va boshqaruv qarorlarini qabul qilish bo'yicha ilmiy tavsiya va amaliy takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: boshqaruv hisobi, ishlab chiqarish hisobi, strategiya, tannarx, xarajatlar, rejalashtirish, kalkulyatsiya, byudjetlashtirish, transfert baho, segmentar hisobot.

Kirish.

Strategik boshqaruv hisobi axborotlaridan foydalanish korxonalar uchun o'zgaruvchan sharoitlarga va bozordagi raqobat kurashiga moslashishga imkon beradi. Rivojlangan davlatlar tajribasi an'anaviy buxgalteriya hisobi va tahlil tizimlarini takomillashtirish va ularni strategik menejment ehtiyojlariga muvofiqlashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Strategik boshqaruv hisobi va tahlili boshqaruv tizimini hisob-tahliliy ta'minotini shakllantirishga imkon beradi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning ichki boshqaruv tizimida menejerlarning axborotlarga bo'lgan ehtiyojini aynan boshqaruv hisobi tizimi ta'minlaydi. Rivojlangan mamlakatlarda firma va kompaniyalar buxgalteriya hisobi sohasidagi ish vaqti va resurslarining 90 foizini boshqaruv hisobini yo'lga qo'yish va yuritishga, qolgan 10 foizini esa moliyaviy hisobga sarflashadi.

Mamlakatimizda strategik boshqaruv hisobi o'zining shakllanish jarayonida. Umuman, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda, strategik boshqaruv hisobi - strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida axborot ta'minoti shakllanadigan boshqaruv hisobining bir yo'nalishi sifatida e'tirof etiladi. Strategik boshqaruv hisobi doirasida xo'jalik yurituvchi sub'ektning barcha faoliyat yo'nalishlarining batafsil tahlili amalga oshiriladi.

Adabiyotlar sharhi.

Strategik boshqaruv hisobi buxgalteriya hisobida yangi faoliyat turi bo'lib, u davlat tomonidan tartibga solinmaydi. Uni tashkil etish va o'tkazish shakllari hamda usullarini aniqlash tashkilot tomonidan strategik barqarorligiga erishish uchun boshqaruvning ustivor maqsadlaridan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda belgilanadi.

Strategik boshqaruv hisobi faqatgina xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi bilan shug'ullanibgina qolmasdan, balki korxonalar rahbariga joriy va istiqbolli boshqaruv qarorlari qabul qilishda ko'maklashishi zarur.

B.Xasanovning fikriga ko'ra: "Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotida zamonaviy boshqaruv hisobining nazariy - uslubiy asoslarini ishlab zarurati quyidagi omillar mavjudligi bilan izohlanadi:

- rivojlangan mamlakatlar tajribasiga muvofiq, buxgalteriya hisobini moliyaviy va boshqaruv hisobiga bo'linishi;
- buxgalteriya hisobida maxsulotlar tannarxini hisoblash, haqiqiy xarajatlardan chetlanishlarni boshqarishda "Standart-kost" hisob tizimining paydo bo'lishi;
- xarajatlarni doimiy va o'zgaruvchan turlarga ajratilishi, natijada korxonalarda ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish, xarajatlarni samarali taqsimlash maqsadida tannarxni kalkulyatsiya qilishning "Direkt-kosting" kabi zamonaviy tizimlarini rivojlantirish zaruratini yuzaga kelishi;
- korxonalar amaliyotiga "zararsizlik nuqtasi", "marjinal daromad", "ishlab chiqarish dastagi" va boshqa yangi iqtisodiy atamalarning kirib kelishi hamda ularni xo'jalik yurituvchi subyektlarda xarajatlar, ishlab chiqarish hajmi va moliyaviy natijalar o'rtasidagi uzviy aloqadorlikni ta'minlashga yo'naltirish zarurati;
- korxonalar hisob tizimi oldiga moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni rejalashtirish, ishlab chiqarish zaxiralarini strategik boshqarish, ularga mos transfert baholarni shakllantirish, xarajatlar va daromadlar hisobining samarali modelini yaratish kabi vazifalarni qo'yilishi;
- buxgalteriya hisobida yangi kompyuter texnologiyalari, axborot dasturlarining keng joriy etilishi, shuningdek, boshqaruv hisobini avtomatlashtirish asoslarini ishlab chiqish muammosining mavjudligi". (Xasanov B, 2013).

Strategik boshqaruv hisobi korxonaning ichki vazifalarini hal qilishga mo'ljallangan bo'lib, bu uning "nou-xau"sidir.

"Korxonalarda yurituvchi subyektlarda strategik boshqaruv hisobining muhim jihatlari quyidagilardan iborat:

- korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish borasida istiqbolli boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun zarur axborotlar manbasini shakllantirish va rahbarlarni ular bilan ta'minlash;
- korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tezkor boshqarishda menejerlarga ishonchli, yuqori samarador axborotlarni o'z vaqtida yetkazib berish;

– mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxini to'g'ri aniqlash, belgilangan me'yorlardan chetlanishlar va ularning yuzaga kelish sabablarini ko'rsatib berish" (A.Ibragimov, 2013).

Strategik boshqaruv hisobi axborotlari korxonaning tezkor va strategik vazifalarini amalga oshirishga ko'maklashadi. Uning tezkor vazifalarga quyidagilar kiritiladi:

– ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda mahsulot ishlab chiqarish tuzilmasini aniqlash;

- ishlab chiqarish zararsizlik nuqtasini topish;

mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar turlari, ularni sotishning muvofiq hajmini rejalashtirish;

- qo'shimcha buyurtmalarni qabul qilish yoki rad etish; baholarni shakllantirish bo'yicha qarorlar qabul qilish.

Strategik vazifalar uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lib, quyidagilardan iborat:

- uzoq muddatli kapital qo'yimlarni jalb qilish; biznes tarkibini o'zgartirish; mahsulotlarning yangi turlarini o'zlashtirish.

Strategik boshqaruv hisobini tashkil etishga doir mavjud yondashuvlar o'rganib chiqilganda, ushbu masalani ko'rib chiqishda turli xil mualliflar turlicha e'tibor berganliklarini kuzatish mumkin. Quyida buni ayrimlariga to'xtalib o'tamiz, jumladan: Strategik boshqaruv hisobi sohasida tadqiqotlar olib borgan U.Kostayev shunday yozadi: "Moliyaviy, soliq, boshqaruv hisoblari strategik hisobning uslubiy hamda amaliy asosini tashkil qiladi.

Shunga e'tibor berish kerakki, an'anaviy hisob konsepsiyalaridan tashqari strategik boshqaruv hisobi strategik menejment uslubiyotini keng qo'llaydi. Zamonaviy olimlarning aksariyat qismi strategik boshqaruv hisobining farqli belgisi makromuhit tashqi omillariga qaratilganligi haqidagi fikrni qo'llab-quvvatlaydilar. Masalan, Kit Uord strategik boshqaruv hisobida tashqi omillarni birinchi darajaga chiqarish zaruratini ta'kidlaydi". (Kostayev, 2020).

Xasanov B.A. va boshqa olimlar xarajatlarni strategik boshqarish masalalariga xalqaro miqyosda yondashib, shuni ta'kidlaydilar: "SCA (Strategic Cost Analysis) xarajatlarni strategik tahlil qilish tizimi boshqaruv hisobining muhim elementi sifatida 90-yillarda paydo bo'ldi. Mazkur hisob tizimining asosiy tarkibiy qismi va markaziy obyekt iste'mol qiymatini shakllantirish zanjiri (value chain) hisoblanadi. Iste'mol qiymatini shakllantirish zanjiri usulida har bir tarkibiy bo'linma oldiga iste'mol qiymatini hozirgi darajada saqlagan holda xarajatlarni kamaytirish yoki xarajatlarni ko'paytirmagan holda iste'mol qiymati (daromad)ni oshirish imkoniyatini qidirish vazifasi qo'yiladi" (Xasanov, 2020).

Xorijlik olimlar Shank Dj. va Govindaradjan V.lar xarajatlarni strategik boshqarish usulini quyidagicha ta'riflaydilar: "SCM (Strategic Cost Management)ning paydo

bo'lishi strategik menejment bo'yicha adabiyotlardan olingan uchta asosiy mavzularning birlashishi natijasida yuzaga keldi:

1. Qiymat zanjiri tahlili (SCA).
2. Strategik joylashish tahlili (pozitsiyani tanlash)
3. Xarajatlarni tavsiflovchi omillar tahlili". (Shank, 1999).

“Strategik boshqaruv hisobi-bu o‘z biznesingiz va raqobatchingizni biznesini tahlil qilish usuli bo‘lib, u biznes strategiyangizni ishlab chiqish va monitoring qilish uchun ishlatiladi”. (Simmmonds, 1990).

“Strategik boshqaruv hisobi texnikasi, birinchi navbatda mahsulot va xizmatlar tannarxini barqaror ushlab turish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali kompaniyalarning umumiy raqobat strategiyasini qo‘llab-quvvatlash uchun ishlab chiqiladi”. (Korper, Kaplan, 1998).

“Strategik boshqaruv hisobi-mahsulot bozorlari, kompaniya raqobatchilarining xarajatlari, ular to‘g‘risidagi moliyaviy ma‘lumotlarni tahlil qilish va bir nechta hisobot davrlarda kompaniya strategiyalari va ushbu bozorlardagi raqobatchilar strategiyasini kuzatish usulidir”. (Bromvich, 1991).

“Strategik boshqaruv hisobi faqat rivojlanayotgan soxadir, shuning uchun chegaralari aniq belgilanmagan va noaniq, nima va qanday ishlab chiqarish kerakligini ko‘rsatadigan yagona yo‘nalish mavjud emas”. (Kod, 1996).

“Strategik boshqaruv hisobi birinchi navbatda kompaniyaning yuqori rahbariyatini maqsadlarga erishishda yordam beradigan ma‘lumotlar bilan ta‘minlashi va keyin raqobatchilarga nisbatan bozorda strategik mavqeini saqlab turishi kerak”. (Roslender, 1996).

“Strategik boshqaruv hisobi-kompaniyaning strategik qarorlarini qabul qilishni qo‘llab-quvvatlaydigan ma‘lumotlarni taqdim etish”. (Innes, 1998).

“Strategik boshqaruv hisobini kompaniyaning moliyaviy va buxgalteriya hisobi muammolarini aks ettirishning ma‘lum bir usulidir”. (Bob Rayin, 1997).

“Strategik boshqaruv hisobi rivojlanishning potensial soxasi sifatida taqdim etiladi, uning natijalari boshqaruv hisobiga katta xissa qo‘shadi”. (Kolin Druri, 2001).

“Strategik boshqaruv hisobi: ichki omil va jarayonlar tahlilini amalga oshirish, tashqi omil va jarayonlar tahlilini amalga oshirish, nomoliyaviy omillar tahlilini o‘tkazish, mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi, harajatlar mazmuni va uning mohiyatini belgilab beradigan eng muhim omil emasligini ta‘kidlash, xamda har bir omil uchun o‘z tahlil tizimining mavjudligidan iborat bo‘ladi” (Pardayev, 2023).

Metodologiya.

Tadqiqot ishini amalga oshirilishi jarayonida adabiyotlar sharhi to‘liq tahlil etilgan holda, ulardagi jahon va maxalliy iqtisodchi olimlarning strategik boshqaruv hisobi va uni tashkil etish, yuritish hamda zaruriyati bo‘yicha bergan fikr va qarashlari atroflicha


o'rganildi, shuningdek, ushbu fikrlarga asoslangan yo'nalishlar, jumladan boshqaruv hisobini yuritayotgan xo'jalik subyektlarida tadqiqot yo'nalishi sifatida tadqiqot paradigmasi miqdoriy, ob'ktiv va ilmiy usullardan foydalanildi.

Strategik boshqaruv hisobini tashkil etishda xarajatlarni hisobga olish, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish, xarajatlarni hisobga olishda xorijiy ilg'or bo'lgan tajribalar, jumladan Standart-kost, Direkttk-kosting, AVS kabi usullardan, shuningdek, strategik rejalashtirish, ya'ni byudjetlashtirish, korxonalarda transfert baholani shakllantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot jarayoni asosan deduktiv va induktiv usulda amalga oshirildi.

Tahlil va natijalar.

Strategik boshqaruv hisobi tizimi faqatgina hisob jarayoni sifatida emas, balki quyida keltirilgan uchta elementlar ketma-ketligida o'zining mohiyatini to'liq ifodalaydi. Strategik boshqaruv hisobining ana shu elementlarining har biri aolhida mustaqil jarayon bo'lsada, amaliyotda ulardan birini boshqasidan ajratish juda qiyin bo'ladi.

Strategik tahlil xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatining muayyan vaqtdagi holatini baholashga qaratilgan. Bundan tashqari, strategik tahlilni amalga oshirish davomida xo'jalik yurituvchi sub'ekt belgilayotgan strategik maqsadining ravshanligi va uning talab qilinayotgan miqdordagi resurslar bilan ta'minlanganlik darajasiga baho berish imkoniyatiga ham ega bo'ladi.



1-rasm. Strategik boshqaruv hisobining elementlari.

Odatda, strategik rivojlanish xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatining tashqi sharoitlar bilan uzviy bog'liqligi sababli strategik tahlil faqatgina iqtisodiy boshqaruv tahlilining an'anaviy deyiladigan vazifalariga alohida e'tiborni qaratmasdan, avvalambor tashqi sharoitlarni xo'jalik yurituvchi sub'ektning uzoq muddatli (strategik) maqsadlariga ta'sir etuvchi omillar sifatida tadqiq qiladi.

Strategik boshqaruv hisobining muhim ikkinchi elementi – strategik rejalashtirishdir. Uni amalga oshirish davomida o‘z navbatida xo‘jalik yurituvchi sub‘ektning uzoq muddatli strategik maqsadlariga erishishni ta‘minlashga mo‘ljallangan uzoq muddatli rejalari ishlab chiqiladi. Xalqaro amaliyotda va bir qator ilmiy manbalarda “strategik rejalashtirish” korporativ rejalashtirish yoki uzoq muddatli rejalashtirish sifatida ham talqin qilinadi.

Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektda strategik rejalashtirishning natijasi – faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha uzoq muddatli strategik rivojlantirish dasturlarini (5 yil yoki undan ko‘p muddatga) ishlab chiqish hisoblanib, u quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

- sub-strategiyalar (ishlab chiqarish, marketing, moliyaviy, xodimlar bo‘yicha);
- alohida yo‘nalishlar strategiyasi (xo‘jalik yurituvchi sub‘ektning turli bozorlarda raqobat qilishi va turli xil mahsulotlar ishlab chiqarishi mumkin bo‘lgan har bir bo‘limlari uchun).

Strategik boshqaruv hisobining uchinchi muhim elementi – bu strategik nazoratdir. Uning roli belgilangan strategik maqsadlarga erishishni kuzatish va nazorat qilish hamda chetlanishlar vujudga kelayotgan vaqtda vaziyatni tezkor tarzda boshqaruv qarorlari qabul qilish holatiga qaytarishni ta‘minlashdan iborat. Bunday qaytarishlar qarorlarga o‘zgartirishlar kiritish va maqsadlarga erishish uchun o‘tilishi lozim bo‘lgan yo‘lga qaytish uchun yoki zaruriyat tug‘ilgan xolatlarda maqsadlarni o‘zgartirish uchun kerak.

Strategik boshqaruv hisobida xarajatlarni boshqarishning turli tizimlari va tamoyillarini o‘zida mujassam etgan strategik boshqaruv hisobini tashkil etishning integratsiyalashgan usuli iqtisodchilar o‘rtasida keng muhokamalarga sabab bo‘lmoqda. Bu borada olimlar tomonidan ilmiy ishlanmalar va modellar taklif qilinmoqda. Xususan, permlik olimi Shalayeva L.V.ning xarajatlarni strategik hisobini tashkil qilishi beshta bosqichga bo‘lib tadqiq etish zarurligi to‘g‘risidagi fikrlarini ilmiy asos sifatida ko‘rib chiqishimiz mumkin: “Birinchi bosqichda bir qator tashkiliy va texnik masalalarni hal qilish zarur:

- korxonani tashkiliy-moliyaviy boshqarish tarkibini hamda mas’ul shaxslarning majburiyatlari va huquqlarini belgilab qo‘yish lozim.
- rejalashtirish, buxgalteriya hisobi, nazorat va boshqarish obyektlari ro‘yxatini tasdiqlash.
- faoliyatning natijadorligi va samaradorligini baholash uchun tahliliy ko‘rsatkichlar tizimini tasdiqlash.

Ikkinchi bosqichda strategik boshqaruv hisobi maqsadlari uchun buxgalteriya hisobining amaldagi qoidalari va tamoyillariga asosan korxonada hisob siyosati ishlab chiqiladi.

Uchinchi bosqichda boshqaruv hisobining asosiy funksiyasi amalga oshiriladi ya’ni korxonada faoliyatining natijadorligi va samaradorligini baholashning eng muhim

ko'rsatkichlari rejalashtiriladi, uning qisqa va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallab hisoblab chiqilgan aniq o'lchovlari tasdiqlanadi.

To'rtinchi bosqichda tezkor nazorat tizimini yo'lga qo'yish tadbirlari amalga oshiriladi ya'ni korxonada faoliyatidagi salbiy holatlarni, tashqi va ichki muhitdagi o'zgarishlarni, shu jumladan asosiy raqobatchilar faoliyatidagi o'zgarishlarni tezda aniqlash uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

Beshinchi bosqichda boshqaruv hisobining rag'batlantiruvchilik funksiyasi mehnatni rag'batlantirish tizimini shakllantirish orqali amalga oshiriladi". (Shalaye, 2016).

Xarajatlarni boshqarish nuqtayi nazaridan hisob siyosatining "Xarajatlar" bo'limida quyidagilar o'z aksini topishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- strategik boshqaruv hisobi tizimida xarajatlarni rejalatirish, me'yorlashtirish va prognozlashtirish maqsadida ta'minot, ishlab chiqarish va sotish jarayonlarini muayyan bir zanjirda tizimlashtirishni o'z ichiga olgan byudjetlashtirish masalalari;
- javobgarlik va xarajatlar markazlari, mahsulot turlari, xo'jalik jarayonlari bo'yicha xarajat elementlari va kalkulyatsiya moddalarini aks ettiruvchi xarajatlarning dastlabki, yig'ma, analitik va sintetik hisobi. Xarajatlarni analitik hisobga olish uchun jurnal-order shaklini Excel yoki 1C dasturiga moslashtirilgan subkontoda bo'linma va ishlab chiqarishning shaxsiy hisob varaqasi reestri yuritilishi lozim.

1-jadval.

Strategik boshqaruv hisobi maqsadlari uchun integratsiya bosqichlari bo'yicha mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish usullarining samarasi va ahamiyatini qiyosiy tahlili

Tizimlar va tamoyillarni integratsiyalash bosqichlari	Mahsulot tannarxini aniqlash usuli	Usulning samarasi va amaliy ahamiyati	Qo'llanish sohasi
1-bosqich	"Direkt-kosting"	Xarajatlarni o'zgaruvchan, shartli o'zgaruvchan va doimiy qismlarga ajratish yo'li bilan har bir faoliyat turining xarajatlari va daromadlarini alohida hisob-kitob qilishga sharoit yaratadi.	Sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo, aloqa, kapital qurilish, transport va h.k.
	"Activity Based	Xarajatlarni javobgarlik	

	Costing” (ABC)	markazlari va kelib chiqish joylari bo‘yicha turkumlash orqali boshqarishga erishiladi.
	Tovarning hayot davri xarajat-larini boshqarish konsepsiyasi (Life Cycle Costing - LCC)	Xarajatlarni boshqarishning marketing tamoyillari asosida tovarning hayot davri bo‘yicha xarajatlar va moliyaviy natijalarni aniqlashga imkon beradi.
2-bosqich	“Activity Based Costing” (ABC)	Xarajatlarni javobgarlik markazlari va kelib chiqish joylari bo‘yicha turkumlash orqali boshqarishga erishiladi.
	“Target-kosting”	Uning mohiyati ishlab chiqarish, muhandislik, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va ratsionalizatorlik ishlanmalarini qo‘llash orqali butun ishlab chiqarish sikli davomida mahsulot tannarxini pasaytirishdan iborat .
	“Kayzen-kosting”	“Tejamkor ishlab chiqarish” konsepsiyasining asosiy g‘oyasi barcha turdagi yo‘qotishlarni imkon qadar kamaytirish, kichik-kichik qadamlar bilan xarajatlarni optimallashtirish, sifat uchun kurash va samaradorlikni oshirishdan iborat.
	Tovarning hayot davri xarajat-larini	Xarajatlarni boshqarishning marketing tamoyillari asosida tovarning hayot davri bo‘yicha

	boshqarish konsepsiyasi (Life Cycle Costing - LCC)	xarajatlar va moliyaviy natijalarni aniqlashga imkon beradi.
3-bosqich	“Direkt-kosting”	Xarajatlarni o‘zgaruvchan, shartli o‘zgaruvchan va doimiy qismlarga ajratish yo‘li bilan har bir faoliyat turining xarajatlari va daromadlarini alohida hisob-kitob qilishga sharoit yaratadi.
	“Standart-kost”	<p>“Standart-Kost” atamasi ikki so‘zdan tashkil topgan: “standart” mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun zaruriy ishlab chiqarish xarajatlari miqdorini (moddiy va mehnat) yoki mahsulot ishlab chiqarish yo xizmat ko‘rsatish birligi uchun oldindan hisoblab qo‘yilgan xarajatlarni anglatadi, “Kost” so‘zi esa mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan xarajatlarni bildiradi.</p> <p>Bu tizim - eng avvalo ishlab chiqarishning bevosita xarajatlaridan foydalanish ustidan nazoratni o‘rnatishga qaratilgan, bir-biriga bog‘liq kalkulyatsiyalar esa qo‘shimcha xarajatlar nazorati uchun mo‘ljallangan.</p> <p>“Standart-Kost” tizimi ishbiarmonlar talablarini qondiradi va ishlab chiqarish xarajatlarini nazorat qilish uchun qudratli qurol bo‘lib xizmat qiladi.</p>

	Benchmarking (raqiblarning eng yaxshi ko'rsatkichlari bilan taqqoslash usuli)	Benchmarking korxonalarining faoliyatini natijalarini raqiblarning eng yaxshi ko'rsatkichlari bilan solishtirib, raqobatbardosh strategiyani va uni eng maqbul amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqishga yordam beradi. Benchmarking strategik boshqaruv hisobini yuritishning eng muhim texnologiyalaridan biri bo'lib, u tadbirkorlik faoliyati muvaffaqiyati-ning ehtimolini ishonchli baholash imkonini beradi.
--	---	---

Xarajatlarning analitik va sintetik hisobi amaldagi 21-sonli BHMSda 2000-3100 schetlarida yuritiladi. Ularning tasdiqlangan normativlar (standartlar)dan chetga chiqishi va o'zgarishi alohida ochilgan 3200-3900 schetlarida hisobga olib borilishi lozim;

- bevosita va bilvosita xarajatlarni taqsimlash, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish tartibi va usulini tasdiqlash;
- ilm-fanning innovatsion g'oyalari va raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan foydalanib, xarajatlarni kamaytirishga yo'naltirilgan usullarini joriy etish;
- ishlab chiqarish bo'linmalari, mahsulot turlari va sotish bozorlari kesimida korxonaning hisobot davri faoliyati natijalarini aks ettiruvchi boshqaruv hisoboti;
- xarajatlar va mahsulot tannarxini ekspress, vaziyatli, diagnostik va istiqbolli boshqaruv tahlili usullarini bayon etish;
- xarajatlarni zararsizlik nuqtasini belgilash va strategik davrlar uchun ularni prognozlashtirish usullarini tasdiqlash.

Xulosa.

Strategik boshqaruv hisobini tashkil etish va uning uslubiyotini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

- korxonada asosiy jarayonlarni amalga oshirishda ishtirok etadigan tashkiliy bo'linmalarning ichki hisobot shakllarini ishlab chiqish orqali ma'lumotlarni olish va ularni guruhlash imkonini berishi lozim;

- korxonaning ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha ko'rsatkichlaridan olingan ma'lumotlarni birlashtirish uchun barcha javobgarlik markazlarini jalb qilish;
- korxonani boshqarish uchun haqiqiy vaziyatga baho beradigan ma'lumotlar bilan ta'minlashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. (Pardayev, 2002). Pardayev A.X. Boshqaruv hisobi. – Toshkent, “Akademiya” nashriyoti, 2002-y. – 176 b.
2. (Pardayev, 2008). Pardayev A.X., Pardayev B.X., Boshqaruv hisobi. /O'quv qo'llanma. - T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2008-y. - 252 b.
3. (Pardayev, 2010). Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi fanidan masalalar to'plami va izohli luhat. /O'quv qo'llanma. – T., TTESI, 2010. – 164 b.
4. (Pardaev, 2014). Pardaev A.X., Pardaeva Z.A. Boshqaruv hisobi /Darslik. – T., “TAFAKKUR”, 2014-y. - 396 b.
5. (Parkinson, 1997). Parkinson S.N., Rustomji M.K. Isskustvo upravleniya. - M.: Agentstvo "FAIR", 1997.
6. (Xasanov, 2012). Xasanov B.A., Xoshimov A.A., Pardayeva Z.A. “Buxgalteriya hisobi nazariyasi” fanidan mustaqil ta'lim uchun ko'rgazmali o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2012-y. - 207 b.
7. (Xolbekov, 2013). Xolbekov R.O., Maxkamboyev A.T., Ergasheva Sh.T., Toshpo'latov A.Sh. Moliyaviy va boshqaruv hisobi fanidan masalalar to'plami. /Uslubiy qo'llanma. - T.: Iqtisodiyot, 2013. – 107 b.
8. (Malinovskaya, 2013). Malinovskaya N.V. Integrirovannaya otchetnost – innovatsionnaya model korporativnoy otchetnosti / Malinovskaya N.V. // Mejdunarodnyy buxgalterskiy uchet. – 2013. – № 38. – S. 12–17.,
9. (Kogdenko, 2014). Kogdenko V.G. Integrirovannaya otchetnost: voprosy formirovaniya i analiza / Kogdenko V.G., Melnik M.V. // Mejdunarodnyy buxgalterskiy uchet. – 2014. – № 10. – S. 2–15.
10. (Kostayev, 2020). Kostayev U.U. Strategik boshqaruv hisobi va uni tashkil qilishning metodologik asoslari. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 1, fevral, 2020-yil.
11. (Xasanov, 2020). Xasanov B.A., Aliqulov A.I., Djumanova A.B., Suyunov Yo. B., Xasanova R.B. Amaliy boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2020. – b. 137